



FRAZEOLOGIZMLARDAGI KOGNITIV-MENTAL MUNOSABATLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Amanova Dilbar Shuxrat qizi

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti magistranti
dilbaramanova55@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21450568>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda o'zbek tili tizimidagi grammatik qoliplar va lisoniy ijodkorlik tamoyillarining o'zaro uyg'unlashish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning shakllanishida xalq dunyoqarashi, tarixiy-madaniy taraqqiyot, milliy ma'naviyat hamda etnik turmush tarzining o'ziga xos jihatlari qay darajada aks etishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: ibora, birikuv usuli, lisoniy ijodkorlik qonuniyatlari, lisoniy manzara, ko'p ma'noli frazemalar, omonim frazemalar.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы взаимодействия грамматических моделей и принципов языкового творчества в узбекском языке. Также научно обосновывается степень отражения в процессе фразеологизации особенностей народного мировоззрения, историко-культурного развития, национальной духовности и этнобытового уклада жизни.

Ключевые слова: фразеологизм, способ сочетаемости, закономерности языкового творчества, языковая картина мира, многозначные фраземы, омонимичные фраземы.

Abstract: This article analyzes the interaction mechanisms of grammatical models and the principles of linguistic creativity in the Uzbek language. It also scientifically substantiates the extent to which the peculiarities of the people's worldview, historical and cultural development, national spirituality, and ethnic way of life are reflected in the process of phraseologization.

Keywords: phrase, combination method, patterns of linguistic creativity, linguistic picture of the world, polysemous phrasemes, homonymous phrasemes.

Frazeologik birlik muayyan xalqning intellektual salohiyati, ma'naviy zaxirasi, tarixiy taraqqiyoti, madaniy saviyasi hamda milliy qadriyatlari kabi mentalitetga xos xususiyatlarni o'zida ifodalaydi. Binobarin, an'ana va tajriba uyg'unlashgan konstruksiyada til, nutq va ong yaxlitligi asosiy o'ringa ko'tariladi. Iborada jo'g'rofiy makonda voqelanadigan lug'aviy birlik nutq madaniyatini hosil qiladigan omilga aylanadi. Aynan lisoniy munosabatlarga kognitiv yondashuv talqin va ifodani bir-biriga muqobillashtiradi. Aslida har bir aloqa-aralashuv vositasi zahirida inson ijtimoiy-psixologik asoslari bo'y ko'rsatadi. Badiiy kommunikatsiya konnotativ va denotativ ma'no taraqqiyoti negizida shakllanadi,





unda har bir tushunchaning nomitativ mohiyati genetik mansublikni yetakchi o'ringa olib chiqadi. Semantik strukturaning paydo bo'lishi shaxs manfaat – ehtiyojlariga uyg'unlashadi. Fikrlash yo'sini, tasavvur miqyosi hamda did-saviya tadrijiining jipslashuvi bevosita mental munosabatlar namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Iborada so'zning qo'llanilish doirasi va ijodiy imkoniyat bir-birini to'ldiruvchi, aniqlovchi hamda bog'lovchi komponentlar hisoblanadi. Unda birlamchi va ikkilamchi ma'no munosabati hal qiluvchi vazifa bajaradi. Tilda tayyor holda mavjud konstruksiya millat dunyoqarashi va baholash mezonlarini markazlashtiradi. Yaxlit va umumlashgan ma'no ustamasini tashiydigan birlikda ifoda hamda talqin uyg'unlashadi. Unda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik, uslubiy xoslanganlik darajasi va nutqiy malaka amaliyoti birlashadi. Jamiyat a'zosining idrok sezgisi aynan tushuncha semantik yangilanishiga olib keladi. Xalq orasida mashhur to'nini teskari kiymoq frazemasida harakat nominatsiyasi erkin so'z birikuvi negizida vujudga kelgan. Unda til, nutq va madaniyat birlashishi milliy mentallik hosil qiladi. Shaxs mansub xalq manfaati – ehtiyojini ifoda etadigan bu ibora jahlga minish jarayonini ifodalaydi. Ruhiy holat manzarasi, hayotiy tajriba aniqligi tushuncha tabiiyligini belgilaydi.

«Frazeologik birliklar xalqning psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarini namoyon etgan ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir. Ularning mohiyatida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xalqning hayotiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turadi. An'anaviy tilshunoslikda til birliklari, jumladan, frazeologik birliklar asosan struktural xususiyatlari asosida o'rganildi». Lug'aviy birliklarning semantik taraqqiyoti munosabat ottenkasi va baholash mezonini yaxlitlashtiradi. Shaxsning his-hayajoni, idrok sezgisi, ruhiy holatini ifodalash uning mohiyatini aks ettiradi. Jumladan, o'zbek adabiy tilida uchraydigan *bel bog'lamoq* va *bel olishmoq* frazemalari bir tayanch ma'no tarmog'idan hosil bo'lgan. Agar dastlabki ibora uch xil: *shaylanmoq*, *otlanmoq*; *astoydil kirishmoq*; *ahd qilmoq* shaklida talqin qilinsa, ikkinchi barqaror konstruksiya ikki xil: *kurash tushmoq*; *sinashmoq* ma'nosida izohlanadi. Ikkala frazeologik birlik ham milliy qadriyatlar negizida shakllangan. Sharq mental turmush tarzi yigit uchun belbog' tushunchasini or-nomus, inson sha'ni darajasiga ko'targan. Ikkinchi ibora jismoniy barkamollik tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib, kurash milliy sport turi sifatida o'ziga xos an'analarga tayanadi. Bir paytning o'zida tasavvurning ham ijodiy lashuvi, ham mantiqiylashuvi, ham







moddiylashuvi, ham barqarorlashuvi ko'p qatlamli hodisa – iborani vujudga keltiradi. Emotsional-ekspressiv bo'yoq iborani shakllantiradi.

Millatning nodir boyligi sifatida frazeologik birikmaning, birinchidan, struktural o'zgarishlarga uchrashi tabiiy hodisa, ikkinchidan, FB matnda vazifa va uslub transformatsiyasini hosil qiladi, uchinchidan, jonli umumxalq so'zlashuv tilini adabiy tildan farqlaydi, to'rtinchidan, amaliyotda mavjud tayyor nutqiy andozalarni yaratadi. Badiiy kommunikatsiya jarayoni aslida adresat – adresant o'rtasida yuzaga keladigan axloqiy pozitsiyani ham gavdalantiradi. Bunda lug'aviy birlikka ontologik, aksiologik va germeneytik yondashuv uzual va okkazional ma'noning o'zgaruvini rasmiylashtirishga yordam beradi.

Mental munosabatni milliy ifoda va madaniy omil sifatida yaxlit tasavvur qilish maqsadida ibora tabiati turkiy xalqlar misolida o'rganilish tarixiga bir qur nazar tashlash foydadan holi bo'lmaydi. Jumladan, Z.Uraksinining «Boshqird tili frazeologiyasi» nomli asarida ta'kidlanishicha, boshqird tili frazemalari uchun ko'p ma'nolilik xususiyati xarakterlidir. Olim boshqird tilidagi uch mingga yaqin frazemalarni tahlil qilib, shulardan 215 tasi ko'p ma'nolilik xususiyatga ega ekanligini aniqlagan, bu miqdor boshqird tilidagi yalpi frazemalarning 9 foizini tashkil etadi. Tadqiqotda iboralarning ma'no taraqqiyoti ikki guruhga ajratib o'rganilgan: a) semalarning ketma-ket siljishi, taraqqiyoti yoki frazemalarda ikkilamchi metaforizatsiya jarayoni asosida hosil bo'lgan FBlar; b) frazemalarda ma'nolalarning parallel siljishi yoki parallel metaforizatsiya jarayoni asosida yuzaga kelgan FBlar. Masalan, «акны каранан айырыу» («oqni qoradan ayirmoq») frazemasida boshqird tilida PF bo'lib, 1) yozish-chizishni bilmoq; 2) hayotda yaxshi-yomonni ajrata bilmoq ma'nolarini bildiradi. Bu PFdagi ko'pma'nolilik ma'nolar o'zaro ketma-ket siljish asosida yuzaga kelgan. «Арка буpeу» («orqa bermoq») frazemasida ham PF bo'lib, uning birinchi ma'nosi «yelkasi bilan o'girilmoq», keyingisi esa «orqaga chekinmoq, qaramoq» semasini ifodalaydi. «Ис кумеу» («esi ketmoq») iborasi ham PF bo'lib, 1) «aql-hushini yo'qotmoq», 2) «hayron qolmoq, ajablanmoq» semalarini ifodalaydi, bu semalar o'zaro parallel metaforizatsiya asosida yuzaga kelgan. Shunisi muhimki, ishda PFlar tarkibidagi semalar taraqqiyoti sxemalar asosida tasvirlangan. Masalan, «ен сигиу» («jon chiqmoq») PF bo'lib, quyidagi uch semaga ega: 1) o'lmoq, vafot etmoq; 2) juda charchamoq, toliqmoq; 3) kuchli hayajonda bo'lmoq. Bu semalar taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi chizmaga solish mumkin:





Z.G.Uraksin talqinicha, frazema va uning komponenti sifatida soʻz bilan semantik jihatdan birikuv natijasida ular orasida tushuncha – mavzuiy, sinonimik, omonimik, antonimik aloqalar vujudga keladi. Soʻz frazema komponenti sifatida ibora tiplari, maʼnoviy guruhlar bilan uzviy munosabatga kirishadi. Bunday holatda, birinchidan, ibora vazifa va uslub yaxlitligida namoyon boʻladi, ikkinchidan, frazeologik konstruksiya maʼno transformatsiya jarayonini boshidan kechiradi, uchinchidan, muayyan komponentlarning leksik, grammatik va semantik bogʻlanishi frazemani hosil qiladi, toʻrtinchidan, kognitiv yondashuv mental xususiyatlarni belgilaydi.

Ozarbayjon tilidagi frazemalarning polisemantik xususiyati G.Bayramov tomonidan tadqiq etilgan¹. Olim taʼkidlashicha, koʻp maʼnoli frazemalar tashqi jihatdan frazeologik omonimlarga juda yaqin turadi, ular oʻrtasidagi asosiy farq shundaki, koʻp maʼnoli frazemalar maʼnolari orasidagi oʻzaro bogʻliqlik, biri ikkinchisini taqozolash xususiyati mavjud. Masalan, ozarbayjon tilida «*jon bermok*» toʻrt maʼnoli PF boʻlib, bu maʼnolar oʻzaro bir-biri bilan aloqador: 1) diniy maʼnoda «oʻldirmok»; 2) haqiqiy maʼnoda «oʻldirmok»; 3) muayyan bir shaxsni qoʻrqitmok; 4) boshiga musibat tushgan kishiga taskin bermok². Koʻrinadiki, G.Bayramov «*jon bermok*» PFsi semantik strukturasini belgilashda ayrim takrorlarga yoʻl qoʻygan. Buni aniq tasavvur qilish uchun Sh.Rahmatullayev lugʻatida xuddi shu frazema semantik strukturasini qanday belgilanganini koʻzdan kechirish kifoya: *jon bermok* I:1) barhayot qilmoq (diniy); 2) hayot bagʻishlamok; *jon bermok* II: 1) (jonli) oʻlmoq, soʻnggi marta nafas chiqarmok; 2) kurashni, qarshilikni toʻxtatmok (OʻTFL, 95-96). Ayon boʻladiki, iboraning tayanch maʼno markazi bir-biriga bogʻliq tushuncha polisemantikasidan tashkil topgan.

Qiyoslash maqsadida «Uygʻur tili frazeologiyasining izohli lugʻati» koʻzdan kechirilganda, soʻzlikda «*jon bermok*» frazemasining uch maʼnosi qayd qilinganligi maʼlum boʻldi: 1) vafot etmok, oʻlmoq; 2) obod qilmoq, hayot olib kelmoq; 3) qizitmok, jonlantirmok³. «Turkman tili frazeologik soʻzligi»da ham «*jan bermek*» frazemasining uch maʼnosi qayd etilgan: 1) oradan chiqmok, oʻlmoq, yoʻqolmok; 2) qattiq ixlos qoʻymok, jon-jahdi bilan kirishmok; 3) harakatga keltirmok, ruhlantirmok⁴. Eʼtibor berilsa, har bir turkiy tilda oʻz milliy mentalligini belgilovchi alohida ifoda mavjud!

¹ Байрамов Г. Озарбайжон тили фразеологиясининг асослари. – Баку: “Маариф”, 1978. – Б.158-160 //озарбайжон тилида//.

² Байрамов Г. Ўша асар. – Б.159.

³ Жамалдинов О. Уйғур тили фразеологиясининг изоҳли луғати. – Алма Ата: “Мектеп”, 1985. – Б.65.

⁴ Туркман тилининг фразеологик сўзлиги. – Ашхабад: Ўлым, 1976. – Б.196.





A.Annamamedov atoqli turkman yozuvchisi X.Deryayevning «Taqdir» romanida uchraydigan frazeologik konstruksiyalarni o'rganish asnosida matnda mavjud ko'p manoli frazemalar tahliliga e'tibor qaratadi. Xususan, «og'zini ochmoq» frazemesi asarda uch xil ma'noda qo'llangan: 1) gaplashmoq, so'zlashmoq; 2) hayron bo'lmoq; 3) och qolmoq. «Qovog'ini ko'tarmoq» frazemesi esa roman badiiy to'qimasida quyidagi ikki ma'noni ifodalashga xizmat qilgan: 1) tushunmoq, anglamoq; 2) kimgadir qaramoq⁵.

Xuddi shu muallif «Turkman tilining frazeologiyasi» (frazeologik sinonimlar), «Hozirgi zamon turkman tilida frazeologik variantlar» nomli tadqiqotlarida ko'p ma'noli frazemalarning frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar bilan semantik hamda struktural-grammatik munosabati masalasiga doir fikr-mulohazalarni ham bildirgan edi⁶. K.Boboyev esa turkman tilidagi «yuzi qora, yuragini ochmoq, yuz tutmoq, ichi qismoq» singari idiomalarni tahlil qilar ekan, ularning ko'p ma'noligi, sinonimiyasi, shakllanish manbalarini o'rganadi⁷. Tadqiqotda muallif idioma tabiati, birlik ma'no tarmoqlanishiga alohida e'tibor qaratadi.

K.A.Mamedova ozarbayjon adabiy tilida uchraydigan frazeologik sinonimlarni tadqiq etar ekan, ko'p ma'noli frazemalar bilan frazeologik sinonimlarning mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga intiladi. Olima fikricha, bir sinonimik qatorga kiradigan frazemalar orasida xam polisemantik xususiyat bo'lishi mumkin. Xususan, «qosh-qovog'ini ochmoq» frazemesi «ko'nglini olmoq» frazemesi bilan ma'no jihatdan o'zaro yaqin. Ayni paytda, «ko'nglini olmoq» frazemesi ekvivalent sifatida «ko'nglini ochmoq» frazemesi bilan o'zaro polisemantik munosabatga kirishadi⁸.

R.Egamberdiyev «Manas» eposida qo'llanilgan frazemalarni o'rganish jarayonida ko'p ma'noli frazemalar semantik strukturasi masalasini ham inobatga olgan edi. Jumladan, dostonda «ko'zi yo'q» frazemesi uch xil ma'no tashiydi: 1) biror shaxsning kerakli vaqtda o'z o'rnida bo'lmasligi; 2) hayotda yashamaydigan, vafot etgan shaxs; 3) noshud, qo'pol, tajribasiz kishi. «Ko'z solmoq» frazemesi esa asarda ikki ma'noni ifodalashi bilan izohlanadi: 1) razm solmoq, qaramoq; 2) yordam bermoq, xayrixohlik⁹.


⁵ Аннамамедов А. Фразеология романа Х.Дерьяева «Судьба». Автореф. дисс.. канд. филол. наук – Ашхабад, 1965. – С.10-11.

⁶ Аннамамедов А. Туркман тилининг фразеологияси (фразеологик синонимлар). – Ашгабад, 1978. – Б.7-93; Аннамамедов А. Ҳозирги замон туркман тилида фразеологик вариантлар. – Ашхабад, 1982. – Б.19-62.

⁷ Бобоев К. Туркман тилида идиомалар. – Ашгабад, 1962. – Б.133-154.

⁸ Мамедова К.А. Фразеологическая синонимия в современном азербайджанском литературном языке. –Автореф. дисс.. канд. филол. Наук. – Баку, 1983. – С.17.

⁹ Егембердиев Р. Фразеологизмы в эпосе “Манас”. Автореф. дисс.. к. филол. наук – Фрунзе, 1980. – С.8-9.





A.Nazarov frazemalar ekspressivligining badiiy-funksional asoslarini qirg'iz tili materiali asosida jiddiy o'rganar ekan, bir qator barqaror konstruksiyalar ekspressivligi, ta'sirchanligini oshirishda uning ko'p ma'nolilik xususiyati ham muhim ahamiyat kasb etishini faktik asosda to'la dalillaydi. Xususan, qirg'iz tilida *bir oyog'i yerda, bir oyog'i ko'kda (osmonda), ko'kdan (osmondan) izlaganini yerdan topdi* kabi frazeologik konstruksiyalar, *to'rt ko'zi tugal, tuproqdan tashqari, og'iroyoq* singari evfemizmlar, odatda, ko'p ma'nolilik xususiyati bilan ajralib turadi¹⁰.

«Qirg'iz tilining frazeologik so'zligi»da 4000 dan ortiq frazemalar izohangan bo'lib, ular orasida *miyasi aylanmoq, burnini torta olmagan, bo'yniga minmoq, boshi aylanmoq, o'z qo'li o'z-o'ziga yetmoq* kabi ikki-uch ma'noli polisemantik frazemalar ham uchraydi¹¹. Barqaror konstruksiyalar milliy mansublik kasb etib, mental jihatlarini tashishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda amaliyotda so'z qo'llanilish doirasi va badiiy nutq jarayoni bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lib, iboraning ifodaga betakrorlik, yorqinlik, ixchamlik va ta'sirchanlik bag'ishlashi qayd qilingan, komponentlarning to'ldiruvchi, aniqlovchi va bog'lovchi belgi-xususiyatlarini mohiyat belgilab beradi. Asl va ko'chma ma'no o'rtasidagi aloqa lisoniy munosabatlarni yo'lga soladi. Aniqrog'i, tilda tayyor holda mavjud konstruksiya millat dunyoqarashi va baholash mezonlarini markazlashtiradi. Unda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik, uslubiy daraja va nutqiy malaka uyg'unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. - Тошкент: Фан, 1983.-88 б.
2. Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида). НДА. - Тошкент, 2006.-21 б.
3. Абдуллаев Ш. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги «бош қотирмоқ» ибораси ҳақида // Тил ва адабиёт таълими, 2005, 1-сон, 80-82-бетлар.
4. Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов (на материале сатирического журнала «Муштум»), Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент, 1968. -23 с.

¹⁰ Назаров А.П. Художественно-функциональные основы экспрессивности фразеологических единиц (на материале киргизского языка). Автореф. дисс.. канд. филол. наук – М.: 1985. – С.8-17.

¹¹ Киргиз тилининг фразеологик сўзлиги. – Фрунзе: “Илим”, 1980. – 324 б. Кенесбаев С.К. Устойчивые сочетания слов казахского языка (парные слова, идиомы и фразы). Автореф. дисс. доктора филол. наук. – Алма Ата, 1944. – С.4-42.





5. Abdullayev Davronbek Atabayevich., Amanova Dilbar Shuxrat qizi “O‘zbek tili frazeologik qatlamida grammatik me’yor va ijodiy qonuniyatlarning birikuv usullari” “Science shine International scientific journal” Issue 6(72), Volume 1 | ISSN 3030-377X | 20.03.2026 195-bet.

